

**“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning ehtiyojlari uchun tovar (ish,
xizmat)larni xarid qilish bo‘yicha shakllantirilgan xarid komissiyasi va
uning baholash guruhi**

Nizomi

I. Umumiy qoidalar

1. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan tuziladigan, ushbu tartib-taomillarni o‘tkazish tartibida shakllantirilishi talab etiladigan kollegial organdir.

2. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ xarid komissiyasi ishini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda - Nizom) xarid komissiyasining (keyingi o‘rinlarda - Komissiya) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini, shuningdek xarid komissiyasi faoliyatini tashkil etish mexanizmini belgilaydi.

3. Komissiya ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olibni tanlashdan iborat.

4. Komissiya o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, shuningdek sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda mazkur Nizom va uning ilovalariga muvofiq amalga oshiradi.

5. Komissiya faoliyati Jamiyatning tarkibidagi yuridik shaxs maqomiga ega korxonalari tomonidan Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalari doirasida tovar (ish, xizmat)ni xarid qilish uchun amal qilmaydi.

6. Jamiyat raisining ruxsati bilan istisno tariqasida alohida hollarda o‘rnatilgan tartibda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish uchun Komissiya tasdiqlanishi mumkin.

7. Komissiyaning vakolati doirasida qabul qilingan qarorlari Jamiyatning barcha tuzilmaviy bo‘linmalari tomonidan ijro etilishi majburiy hisoblanadi.

8. Komissiya o‘z faoliyatini zarur hollarda Jamiyatning barcha tuzilmaviy bo‘linmalari va korxonalari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshirishi mumkin.

II. Komissiya tarkibi

9. Komissiya a‘zolarining soni toq bo‘lib, uning tarkibi va a‘zolari soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog‘liq bo‘ladi va qonunchilikka muvofiq hamda xarid qilinayotgan tovar (ish, xizmat) xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqaruv raisining tegishli buyrug‘i asosida o‘zgarishi mumkin.

Jamiyatda Komissiya tarkibi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruv raisining buyrug'i bilan tasdiqlanadi ("O'zbekiston temir yo'llari" AJ ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo'yicha xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'ining 1-ilovasi).

Komissiyaning tasdiqlangan tarkibi xarid qilish tartib-taomillarining raqobatli turlari elektron eng yaxshi takliflarni tanlash, tender, xadli kelishuv va ikki bosqichli davlat xaridlarini o'tkazish uchun amal qiladi, operatorlarning elektron tizimi tomonidan avtomatik g'olibni aniqlash xarid turlari (elektron va milliy do'kon, auksion, kooperatsion do'kon, birja savdolari va boshqalar) to'g'ridan-to'g'ri davlat xaridlari bundan istisno.

Zarur hollarda, investitsion loyihalarni amalga oshirish doirasida o'rnatilgan tartibda boshqaruv raisining buyrug'iga muvofiq alohida Komissiyalarni shakllantirishga ruxsat beriladi.

10. Komissiyaning a'zolari obyektiv bo'lishlari, xarid qilish tartib-taomillari g'olibini tanlashda shaxsiy manfaatni ko'zlamasliklari lozim.

11. Davlat buyurtmachisi Komissiyani to'g'ri shakllantirish uchun javobgar hisoblanadi.

12. Komissiyasi faoliyatini Komissiya raisi boshqaradi. Komissiya raisi yig'ilishlarni chaqiradi va olib boradi, ovoz berish jarayonlarini tashkil etadi komissiya qarorlarini e'lon qiladi hamda bayonnomalarni tasdiqlaydi.

13. Komissiya raisi bo'lmagan taqdirda (ushbu lavozimga yangi shaxs tayinlanganiga qadar), uning vazifalarini o'rinbosari bajaradi.

14. Agar Komissiya a'zosi Komissiyasi raisning vazifasini bajarsa, uning o'rniga shu boshqarmaning birinchi o'rinbosari yoki o'rinbosari Komissiyaning a'zosi sifatida kiritilishi mumkin.

15. Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tganda, komissiya tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan hodim kiritiladi, Komissiya a'zosi o'zgargan taqdirda, Komissiyaning ma'sul kotibi tomonidan shaxsiy kabinet orqali elektron tizimda tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

III. Komissiya vazifalari

16. Komissiya vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

a) ishtirokchilardan kelib tushgan takliflarni obyektiv baholash va ularni qo'yiladigan talablarga muvofiqligi darajasi bo'yicha tartibga solish, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ehtiyojlari va "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruv organlari hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Prezidenti tomonidan qo'yilgan masalalarni o'z vaqtida bajarish uchun xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo'yicha eng maqbul takliflarni tanlash.

b) eng yaxshi texnik-iqtisodiy xususiyatlarga ega tovar (ish, xizmat)ni tanlash.

IV. Komissiya funksiyalari

17. Komissiya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- xarid hujjatlarini kelishadi;
- takliflarni qabul qilish muddatlarini belgilaydi;
- takliflarni ko'rib chiqish tartib-taomillarini belgilaydi;
- takliflarni baholash mezonlari va usullarini belgilaydi;
- zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;
- xarid qilish tartib-taomillari asosida ishtirokchilarining takliflarini ochish jarayonini o'tkazadi;
- zarur bo'lganda dastlabki malaka va texnik baholash natijalarini hisobga olib, qaror qabul qiladi;
- zarur bo'lganda baholash guruhiga qo'shimcha mutaxassislarni jalb qilish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshiradi.

18. Komissiyasi davlat xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-taomillarining O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlardagi talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asoslilik va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

19. Komissiya davlat xaridlarining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar emas.

Komissiya tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar davlat buyurtmachisi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari uchun majburiydir.

V. Komissiya faoliyatini tashkil etish

20. Komissiya eng yaxshi takliflarni tanlash, tender, xadli kelishuv va ikki bosqichli davlat xaridlarini elektron shaklda o'tkazish chog'ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib elektron tizimda ochilgan shaxsiy kabineti orqali ovoz beradi.

21. Zarur bo'lgan hollarda, Komissiya majlislari Komissiyasi a'zolari hozirligida yuzma-yuz, videokonferensiyalar, telekonferensiyalar yoki sirtqi so'rov shaklida o'tkazilishi mumkin.

22. Komissiya davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar mutaxassislarni jalb etishi mumkin.

23. Komissiya qarori uning a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

24. Komissiya a'zolarida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'rib chiqilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmaydi.

25. Agar Komissiyaga mazkur komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, uning o'zi esa o'zini o'zi rad etmagan bo'lsa, bunday a'zoning mazkur masala bo'yicha ovoz berishiga yo'l qo'yilmaydi.

26. Agar Komissiya a'zosi tomonidan qaror qabul qilinganidan so'ng tegishli masala bo'yicha affillanganlik holati aniqlansa, ushbu a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

27. Takliflarni ko'rib chiqish va baholashga oid ma'lumotlar baholash tartib-taomiliga rasmiy aloqasi bo'lmagan shaxslarga oshkor etilmaydi. Komissiya a'zolari, jalb etilgan ekspertlar hamda baholash guruhi a'zolari ushbu ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlash va ularning oshkor etilmasligi uchun javobgardirlar.

28. Davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazishni tashkil etish maqsadida ixtisoslashgan tashkilotni jalb qilishga haqli.

Ixtisoslashgan tashkilot — davlat buyurtmachisining topshirig'iga asosan, shartnoma asosida tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha davlat xaridlarini amalga oshirishni tashkil etish xizmatlarini pullik asosda ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxs hisoblanadi.

Shartnomaning muhim shartlarini belgilash va shartnomani imzolash faqat davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashgan tashkilotni jalb qilish Qonun va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar va mezonlar asosida davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashgan tashkilotlar davlat xaridlarini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun davlat xaridlarga oid Qonun va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Jamiyatda xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda ixtisoslashgan tashkilotni jalb qilish haqidagi qaror Jamiyat boshqaruv raisi yoki unig vazifasini bajaruvchi shaxs tomonidan qabul qilinadi.

Ixtisoslashgan tashkilot yoki uning affillangan shaxsi o'zi tashkilotchi bo'lgan xarid qilish tartib-taomilida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi sifatida qatnashishi mumkin emas.

Davlat buyurtmachisi ixtisoslashgan tashkilotni Qonun va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning tegishli moddasida keltirilgan talablarga muvofiq jalb etish uchun javobgardir.

Ixtisoslashgan tashkilot vazifalari, funksiyalari hamda faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan.

VI. Xarid komissiyasining baholash guruhi

29. **Baholash guruhi** - Xarid qilinayotgan tovar (ish, xizmat)larni xususiyatidan kelib chiqib, tegishlilik va o'z yo'nalishiga muvofiq boshqarmalarning rahbar va mutaxassislardan iborat mas'ul xodimlaridir.

30. Xarid qilinayotgan tovar (ish, xizmat)larni xususiyatidan kelib chiqib, Komissiya tegishli boshqarma va tashkilotlarning mutaxassislarini baholash guruhi tarkibiga jalb qilishga xaqli.

31. Baxolash guruhi:

Tanlash, tender, xadli kelishuv va ikki bosqichli xarid turlari bo'yicha xarid qilish hujjatlarida belgilangan malaka va texnik talablar asosida ishtirokchilarning takliflarini ko'rib chiqadi va baholaydi xamda baholash natijalarini mas'ul kotibga taqdim etadi.

Xarid jarayonlarining yakunlari bo'yicha tayyorlangan hisobotni Komissiyaga asoslab beradi.

32. Zarur bo'lganda Komissiya baholash guruhiga qo'shimcha mutaxassislarni yoki ekspertlarni jalb qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

VII. Komissiyaning Mas'ul kotibi.

33. Jamiyat boshqaruv raisining tegishli qarori asosida Jamiyatning xarid tartib-taomillarini (tanlash, tender, xadli kelishuv va ikki bosqichli xarid turlari) tashkil etish uchun Komissiyaning mas'ul kotibi "Temiryo'lta'min" boshqarmasi hisoblanadi.

Komissiyaning va baholash guruhini xarid jarayonidagi tashkiliy masalalarini ma'sul kotib bajaradi.

34. Komissiyaning mas'ul kotibi:

- Komissiyaning navbatdagi yig'ilishi uchun barcha materiallarni o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

- buyurtmachi tomonidan tayyorlangan hujjatlar xaridlarga oid qonunlar, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda mazkur buyruq talablariga muvofiqligini ko'rib chiqadi;

- xarid hujjatlarini Komissiyaga elektron tasdiqlash uchun kiritilishini ta'minlaydi;

- xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish uchun zarur materiallar tayyorlanishini ta'minlaydi;

- Jamiyat bo'yicha xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish haqidagi e'lonlar nashr etilishini ta'minlaydi;

- xarid hujjatining malaka va texnik qismlari bo'yicha baholash guruhi tomonidan tayyorlangan hisobotini rasmiylashtiradi va ko'rib chiqish uchun xarid komissiyasiga taqdim etadi;

- tasdiqlangan mezonlar bo'yicha xisobotga muvofiq ishtirokchilarning takliflarini baholash natijalarini davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiradi;

- Komissiya qarorlariga muvofiq Komissiya ko'rib chiqishi uchun axborot, tahliliy va boshqa materiallarni taqdim etadi;

- yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha Komissiya yig'ilishlari o'tkazilishini tashkil etadi;

- navbatdagi yig'ilish uchun barcha zaruriy hujjatlar yig'ilishi, umumlashtirilishi va Komissiya raisiga taqdim etilishini ta'minlaydi;

- yig'ilish o'tkazilishi muddatlari va joyini hamda taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini Komissiya raisi bilan kelishadi;
- Komissiya a'zolari va taklif etilgan shaxslarni yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqti va joyi haqida xabardor qiladi;
- Komissiya qarorlari bajarilishini monitoring qiladi va uning natijalarini Komissiya yig'ilishida ko'rib chiqilishi uchun taqdim etadi;
- Komissiyaning tizim orqali rasmiylashtirgan elektron shakllangan bayonnomalarini buyurtmachiga taqdim etadi.

VIII. Eng yaxshi takliflarni tanlash, tender, xadli kelishuv va ikki bosqichli xarid turlarida Komissiya faoliyatini tashkil etish

35. Xarid jarayonlarini o'tkazishda Komissiya a'zolari jami sonining uchdan ikki qismidan kam bo'lmagan a'zolari hozir bo'lishi lozim, har bir yig'ilish va qabul qilingan qarorlar elektron bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

36. Davlat xaridini tanlashda kamida besh nafar tender, xadli kelishuv va ikki bosqichli xarid turida kamida yetti nafar a'zodan iborat hamda Komissiya tarkibi davlat buyurtmachisining xodimlari orasidan tuziladi.

Komissiyaning vakolatiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish uchun Komissiya a'zolari va mas'ul kotibining muloqot qilish imkoniyati davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan yopiq chat orqali ta'minlanadi.

37. Davlat xaridlarining elektron tizimidagi shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda Komissiyaning har bir a'zosi, shu jumladan, uning raisi xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart. Operator Komissiya a'zolari tomonidan kiritilgan ma'lumotlarning maxfiyiligini ta'minlash bo'yicha javob beradi.

38. Komissiya raisining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjud bo'lsa, tenderni o'tkazish jarayoni jamiyat boshqaruvi raisi tomonidan Komissiyaning vaqtinchalik yangi raisi tayinlanguniga qadar to'xtatiladi.

39. Komissiyaning har bir a'zosi o'zining shaxsiy kabineti orqali ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi (betaraf bo'lishi) mumkin. Belgilangan muddatlarda Komissiya a'zosi shaxsiy kabineti orqali ovoz berishdan bosh tortgan taqdirda, uning ovozi betaraf sifatida qabul qilinadi. Komissiya raisi yoki uning vazifasini bajaruvchisi ovoz berishdan bosh tortishga haqli emas.

40. Komissiya tanlashda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan bir ish kunidan kechiktirmay tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tanlashda takliflarni taqdim etishning tugash muddati kamida uch ish, tenderda o'n ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartirishlar kiritiladi. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

41. Xarid jarayonlari bo'lib o'tgan deb hisoblanadi, agar ishtirokchilarning soni qonunchilikda belgilangan tartibda bo'lsa.

42. Ishtirokchilarning barcha takliflari tanlash va tender bo'yicha xarid hujjatlarida belgilangan mezonlar asosida baholanadi va elektron bayonnomasida qayd etiladi.

43. Ishtirokchilar takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish muddati tugagandan keyin tanlashda o'n ish kunidan tenderda qirq besh ish kunidan oshmasligi kerak. Xadli kelishuv va ikki bosqichli xarid turida belgilangan qonunchilik talablariga muvofiq.

44. Ishtirokchilarning takliflari 2 bosqichda baholanadi:

1-bosqich – taklifning malaka va texnik qismini baholash;

2-bosqich – taklifning tijorat qismi maxsus elektron portal orqali avtomatik tizim tomonidan baholanadi.

45. Komissiya taqdim etilgan takliflarni quyidagi omillardan kelib chiqib qaror qabul qiladi:

- xarid xujjatidagi ishtirokchilarga qo'yilgan talablarga ya'ni malaka va texnik qismga muvofiqligini ko'rib chiqib hamda baholash guruhi tomonidan tayyorlangan hisobot bo'yicha;

- ko'rsatilgan texnik parametrlar xarid hujjatlarining texnik qismi talablariga muvofiqligi, xususan: tovarni ishlab chiqaruvchi mamlakat, tovarni ishlab chiqaruvchi, tavsifnomalar, davlat standartlari, tovarning texnik shartlari, tovar sifati, laborator tekshiruvlar natijalari (zarur hollarda) va boshqalar;

- tovarni (xizmat) yetkazib berish shartlari va muddatlarini va kafolatini amalga oshirish shartlari;

- qonunchilik talablariga zid bo'lmagan boshqa mezonlar nazarda tutiladi.

46. Import shartnomasi bo'yicha xarid qilishga taklif etilayotgan tovar (ish, xizmat)ni baholashda huddi shunday tovar (ish, xizmat) O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilishi muhim omil hisoblanadi.

Tovar (ish, xizmat)larni xarid qilinishi uchun e'lon berilishida Komissiya buyurtmachining texnik topshirig'iga muvofiq O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga tovar (ish, xizmat)larni yetkazib berish bo'yicha import shartnoma (kontrakt) tuzishga yo'l qo'yilmasligiga amal qilishi lozim, respublikada ishlab chiqariladigan tovar (ish, xizmat)lar buyurtmachining sifat va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha talablariga javob bermasligi alohida hollari budan mustasno.

Xarid qilinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni birinchi navbatda new.cooperation.uz portalida ro'yxatdan o'tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoniyatini majburiy tartibda o'rganadi. Bunda, davlat xaridlari uchun zarur bo'lgan tovarlar new.cooperation.uz portalida mavjud bo'lmagan taqdirdagina portal ma'lumotnomasi asosida ularni boshqa elektron portallardan xarid qilishga ruxsat etiladi.

Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarida chet ellik yetkazib beruvchilar bilan bir qatorda kamida uchta mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirok etsa, agar O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlariga ko'ra ushbu mahalliy ishlab chiqaruvchilarga takliflarni baholashda foydalaniladigan imtiyozlar va preferensiyalar (ma'lumot uchun: hozirgi kunda mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan import tovarlarning CIP (O'zbekiston) narxidan 15 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda preferensiya qo'llash belgilangan) berilishi mumkin.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga takliflarni baholashda foydalaniladigan imtiyozlar va preferensiyalar elektron tizim tomonidan ko'rsatiladi.

47. Ishtirokchilarning takliflari quyidagi hollarda ustunlikka ega bo'lishi mumkin:

xarid hujjatlari talablariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqaruvchi mahalliy ishlab chiqaruvchilar va kompaniyalar, respublika hududida ishlab chiqarilmaydigan tovar (ish, xizmat)larning yaxshiroq texnik ko'rsatkichlariga ega import shartnoma doirasidagi muqobil takliflari;

tovar ishlab chiqariladigan mamlakatda yoki O'zbekiston Respublikasiga tovarni olib kirishda bojxona stavkalariga ijobiy ta'sir etuvchi kelishuvlari imzolangan davlatlarda bo'lgan ishtirokchilar takliflari.

48. Baholash jarayonida Komissiya, baholash guruhining a'zolari yoki mas'ul kotib ishtirokchilarga ularning takliflari bilan bog'liq tushuntirishlar taqdim etish uchun so'rov yuborishi mumkin.

Bu yerda "tushuntirishlar berish" deganda, ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarni aniqlashtirish, xususan taklifda mavjud bo'lgan qarama-qarshi ma'lumotlar (o'lchov birliklari, arifmetik xatolar, xarid hujjatlarining aniq nusxalari, tasdiqlovchi hujjatlar va shu kabi boshqa holatlar) bo'yicha izohlar taqdim etilishi tushuniladi.

Tushuntirish olish ishlari elektron savdo platformaning ochiq chati orqali elektron ko'rinishda va elektron pochta orqali rasmiy xat yuborish orqali amalga oshiriladi.

49. Komissiya, baholash guruhi yoki ma'sul kotib ishtirokchidan uning boshqa ishtirokchilarga nisbatan tanlashda va tenderda pozitsiyalarini yaxshilashga ta'sir etishi mumkin bo'lgan hujjatlarni so'rash huquqiga ega emas, Komissiya tomonidan bunday hujjatlar barcha ishtirokchilardan so'ralgan hollar bundan istisno.

50. Komissiya ma'sul kotibi takliflarni arifmetik hisob-kitoblardagi, vakolatlar ta'minlanishidagi xatoliklar mavjudligi, imzolar mavjudligi, hujjatlar va takliflar rasmiylashtirilishining umumiy tartibi bo'yicha tekshirib chiqadi.

51. Tanlash va tender doirasida taqdim etilgan barcha tovar (ish, xizmat)lar ularni ishlab chiqarish ruxsatiga ega mamlakatlardan bo'lishi va tovarning kelib chiqish zarur xollarda Sertifikati bilan tasdiqlanishi lozim.

52. Yetkazib berilayotgan tovar (ish, xizmat)lar e'lon va xarid hujjatlarida ko'rsatilgan standart va texnik ko'rsatkichlarga mos kelishi kerak.

53. Xarid hujjatlarining barcha shartlariga mos keluvchi takliflar talablarga to'liq javob beruvchi takliflar hisoblanadi.

54. Xarid hujjatlari talablariga javob bermagan takliflar ularni ko'rib chiqish va baholash bosqichida rad etiladi. Agar ishtirokchining taklifi qisman

to'g'ri kelsa, uning taklifi bo'yicha aniqlik kiritish maqsadida baholash guruhi yoki mas'ul kotib bevosita ishtirokchiga murojaat etishi mumkin va olingan javobga muvofiq Komissiya qaror qabul qiladi.

55. Komissiya xarid hujjatlari talablariga javob beruvchi deb aniqlangan takliflarni tahlil qiladi va solishtiradi.

56. Ishtirokchilarning eng yaxshi takliflarni tanlashda va tenderda baholashda Komissiya, mas'ul kotib yoki baxolash guruh mutaxassislari quyidagi tashkilotlarni takliflarini rad etishi mumkin:

- qayta tashkil etilish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida bo'lganlarni;
- avval tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni tegishli tarzda bajarmaganlarni;
- buyurtmachi bilan sud yoki arbitraj muhokamalari holatida bo'lganlarni;
- imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotlarni ko'rib chiqish va taqdim etish ko'zda tutmaydigan (offshor zonalar) davlat va hududlarda ro'yxatga olingan olingan norezidentlarni hamda offshor zonalardagi banklarda hisob-raqamga ega norezidentlarni;
- soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lganlarni;
- shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslarning mavjud bo'lmaganlarni;
- shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egaliga bo'lmaganlarni;
- insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganlarni;
- xarid xujjatidagi talablariga texnik va malaka ko'rsatkichlar bo'yicha javob bermaydiganlarni;
- ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;
- ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa.

Komissiyaning yoki davlat xaridlari elektron tizimi operatorining ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to'g'risidagi qarori va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari haqidagi hisobotga kiritiladi hamda ular haqida kotib tomonidan elektron bayonnomada ko'rsatiladi.

57. Xarid hujjatlari va taklifda belgilangan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

58. Komissiya a'zolari davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllangan yig'ilishning elektron bayonnomalarini ERIdan

foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnomadan ko'chirma davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda e'lon qilinadi.

59. Xarid hujjatlarida tanlashning har tovari (ishi, xizmati) xarid qilish tartib-taomillarining alohida birligi sifatida ko'rib chiqilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, Komissiya g'olibni tanlashning har bir predmeti (loti) bo'yicha aniqlaydi.

60. Tanlash va tender natijalari ikki ish kuni davomida muhokamaga qo'yiladi, tanlash va tender ishtirokchilaridan xarid o'tkazish natijalari bo'yicha e'tiroz tushmasa, davlat buyurtmachisi va Komissiya tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

61. Muhokama uchun o'rnatilgan muddat tugagandan so'ng tushgan e'tirozlar Komissiya tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

62. Xarid tartib-taomillarini o'tkazilishi natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda Komissiya e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

63. Belgilangan muhokama muddati mobaynida ishtirokchilardan e'tirozlar kelib tushmasa elektron tizim tomonidan o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar tushmaganligi to'g'risida bayonnoma rasmiylashtiriladi.

64. Tenderning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash elektron bayonnomasi e'lon qilinganidan keyin davlat buyurtmachisiga tender natijalari bo'yicha tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi yoki kotib bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tender ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etadi.

65. Tanlash, tender, xadli kelishuv va ikki bosqichli xarid turi natijalariga asosan g'olib bilan o'rnatilgan tartibda shartnoma tuziladi.

66. Takliflarni solishtirish natijalariga asosan Komissiya 1-bosqichdan o'tgan ishtirokchilarni aniqlaydi va 2-bosqich yakunlari bo'yicha elektron tizim narxni baholagandan keyin avtomatik ravishda bayonnomada g'olib va zaxira g'olibi qayd etiladi.

67. Xarid hujjatlari va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq elektron tizim narxni baholash natijasida g'olib taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchini elektron tizim zahiradagi g'olib deb aniqlaydi.

68. Tanlash va tender natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash yoki tender ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan boshlab o'n ish kunidan kechiktirmasdan tuziladi.

69. Tanlash va tender natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma haqidagi axborot u imzolangan kundan boshlab besh ish kunidan kechiktirmay kotib tomonidan maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

70. Ishtirokchilar takliflarini ko'rib chiqish va baholash haqidagi ma'lumot baholash tartib-taomiliga rasman aloqador bo'lmagan shaxslarga

berilmaydi. Komissiya a'zolari, jalb qilingan ekspertlar, baholash guruhi va mas'ul kotib mutaxassisleri ushbu ma'lumotlar oshkor etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

71. Komissiya quyidagi hollarda birinchi zahiradagi ishtirokchi bilan shartnoma tuzish bo'yicha qaror qabul qilishi mumkin:

- g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa;
- tanlov g'olibi, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari yetishmasligi sababli, tovarni xarid hujjatlarida ko'rsatilgan hajmda yetkazib berish imkoniga ega bo'lmasa;
- g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi.

72. Komissiya tomonidan zahiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va u bo'yicha majburiyatlari bajarish huquqi zahiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zahiradagi g'olib tanlash yoki tender g'olibi deb topilgan ishtirokchi taklif etgan narx bo'yicha shartnoma tuzadi (zahiradagi g'olib taklif etgan narx tanlov g'olibi taklif etgan narxdan past bo'lgan hollar bundan istisno), yoki shartnoma tuzishdan voz kechishi mumkin.

73. Komissiya tomonidan zahiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zahiradagi g'olib shartnoma tuzishdan voz kechsa, davlat buyurtmachisi yangi tanlov o'tkaza oladi yoki O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq xaridni elektron do'kon yoki auksion orqali amalga oshiradi.

74. Agar Komissiya tomonidan tender jarayonida zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, davlat buyurtmachisi yangi tender o'tkazadi.

IX. Yakunlovchi qoidalar

75. Komissiya yig'ilishlari bayonnomalarining asl nusxalari va unga ilova qilingan ma'lumotlar ma'sul kotib yoki uning funksiyalarini bajaruvchi bo'linmada saqlanadi.

76. Elektron tanlash va tenderda avtomatik ravishda shakllangan bayonnomalar operatorning elektron tizimida jamiyatga ochilgan shaxsiy elektron kabinetida saqlanadi.

77. Komissiya qarorlari ijrosi nazoratini ma'sul kotib amalga oshiradi.

78. Komissiya, baholash guruhi hamda Komissiya kotibi o'z vakolatlari doirasida faoliyatni O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq yuritilishi uchun javobgar hisoblanadi.